

Мәнжүли, Бексыйық минер кемеге,
Хәддине бақ бизди Қоңырат демеге,
Қызларын шығады геуірек жемеге,
Барлығы сықылсыз шортанға мегзер.
Бундай мысалдарды Бердақ дәретіушилигинде көптеп келтире беріу мүмкін. Себеби, шайыр бақшылық кәсіп пенен шұғылланығына байланысты байрам хәм той-мерекелердеги саз-сәубет жыйындарда (кур) миллий атқарыушылық хәм дәретіушиликте илхам-йош айды-

нында импровизацияның (төкпе таланттын) тууылыуы тәбиий жағдай.

Улыұма алғанда XIX әсир қарақалпақ классикалық әдебиаты жазба әдебиат белгилери менен рауажланыуына қарамастан, классик шайырлар дәретіушилигинде ерте дәуір әдебиаты дәстүрлері; шешенлик өнері, фольклорлық дәстүрлер, саз өнері улыұма көркем өнердің синкретикалық белгилери, импровизациялық әдіс усыллары жәмлескен халында рауажланыуы сақланып турды.

Әдебиетлар

1. Әжинияз (Таңламалы шығармалары). -Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1975.
2. Әжинияз (Таңламалы шығармалары). -Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1994.
3. Дәўқарасев Н. Шығармаларының толық жыйнағы, II том. -Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1977.
4. Бердақ. Сайланды шығармалары. -Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1997.
5. Күнхожа. Ел менен. -Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1989.
6. Жәрімбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық кәсіптерлері хәм рауажланыу тарихы. -Н.: «Билим», 2004.
7. Өтеш Алшынбай улы, Көкөзек (Таңламалы шығармалары). -Нөкіс: «Қарақалпақстан», 1989.
8. Пахратдинов Ә., Пахратдинов К. Бердақ шайыр хакқында легендалар, әпсаналар хәм хакыйқатлықлар. -Н.: «Билим», 1997.

РЕЗЮМЕ. Мақалада XIX аср қарақалпақ адабиетінің йирик ижодкорлары Кунхұжа, Ажиниёз ва Бердақ шоирларнинг ижодида импровизация аънаси сўз этилади. Бу давр адабиётда санъат турларнинг синкретик тамойиллари ўрганилади. Шоирлар ижодида импровизация аънасалари назарий жиҳатдан баён этилади. XIX аср қарақалпақ адабиётининг йирик вакиллари Кунхұжа, Ажиниёз ва Бердақ шоирлар импровизатор шоир, бахши сифатида баҳоланади.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается традиция импровизации в творчестве великих поэтов каракалпакской литературы XIX века Кунходжа, Ажинияза и Бердаха. В литературе этого периода изучаются синкретические начала художественных форм. В произведениях поэтов теоретически описаны традиции импровизации. Великие представители каракалпакской литературы XIX века Кунхожа, Ажинияз и Бердах считаются поэтами-импровизаторами.

SUMMARY. The article examines the tradition of improvisation in the works of the great poets of the Karakalpak literature of the 19th century Kunkhodzha, Ajiniyaz and Berdak. In the literature of this period are studied syncretic principles of artistic forms. In the works of poets, the traditions of improvisation are theoretically described. The great representatives of the Karakalpak literature of the 19th century Kunkhoja, Ajiniyaz and Berdak are considered poets-improvisers.

SHE'RIYATDA RITORIK MUNOSABAT HOSIL QILISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

S.Matyakupov – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: monolog, dialog, estetik munosabat, badiiy mahorat, ifoda uslubi.

Ключевые слова: монолог, диалог, эстетическое отношение, художественное мастерство, манера выражения.

Key words: monologue, dialogue, aesthetic attitude, literary skill, expressive style.

She'riyat muttasil ravishda inson idrok tuyg'usini tahlil qilishga intiladi. Zero, mazkur holat sabab va oqibat o'rtasida munosabat hosil qilgan holda his-tuyg'uni ma'no tarangligiga yo'naltiradi. Unda tasvir ruhiyati teranligi, bilish va anglash darajasining tadrijiy taraqqiyoti, falsafiy fikr yangilanishi his qilinadi. Shakl va ifoda yurishining davomiyligi hamda badiiy g'oya estetik quvvatini belgilashga bo'lgan ehtiyoj, tushunchada tashbeh o'yini she'riy nutqda o'ziga xoslik kasb etadi. Shuningdek, tuyg'u va ong ziddiyati badiiy matn yaxlitligini ta'minlaydigan tayanch markazga aylanadi. Bu o'rindagi asl oniy kechinmani ilg'ash murakkab jarayon hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, she'riyatda dialog bir tomondan, ijodkor maqsad-muddaosini tayin etadigan tizim shaklida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, shoir badiiy aloqa usullarini shakllantiradigan vosita vazifasini o'taydi. Mazkur ikki nutqni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, lirika tasvir ruhiyati talablariga tayanadi. Unda "tasvir vositalari uyg'unligi, o'zaro chambarchas bog'lanib ketganligi, biri ikkinchisini keltirib chiqarganligi tasvir mukammalligini ta'minlaydi" [3:131]. Aynan tasavvurda tahlil va idrok uyg'unligi mohiyatni ochishga xizmat qiladi. Badiiy nutq asnosidagi munosabat hissiyot, holat va mantiq izchilligini vujudga keltiradi.

Lo'lilardan bir to'p bola so'rashdi bir kun:

– Ayting qani, biror Vatan bormi sizlarda?

Ular dedi:

– Kezmas edik dunyoni dilxun

Sizlar aytgan o'sha Vatan bo'lsa bizlarda... [1:233].

Azim Suyunning "Vatan" she'rida ritorik ohang ifoda va hikmatni uyg'unlashtiradi. Munosabatli nutq azaliy hamda abadiy muammo - odamzod kindik qoni to'kilgan yurtidan bahs ochadi. Bolalar va lo'lilar orasida kechgan muloqot kitobxonni o'ziga tildiradi: hamisha o'ziga tortib turadigan go'sha qanday sir-sinoatga ega?! Bu holatni his qilish oson emas, zotan, bir siqim tuproq qadrini musofir yaxshi ilg'aydi. She'rdagi murojaat keskinligi (Ayting qani, biror Vatan bormi sizlarda?) hamda javob aniqqligi (Kezmas edik dunyoni dilxun, Sizlar aytgan o'sha Vatan bo'lsa

bizlarda) masalani yanada oydinlashtiradi. Shoir tafsilotdan anglashilgan g'oya zalvoriga e'tibor qaratmaydi, balki u keltirib chiqargan kayfiyat ifodasiga urg'u beradi. Bu o'rinda badiiy nutq so'zlovchi va tinglovchi manfaatini tenglashtiradi. Ichki ruhiyatda mujassamlashgan kompozitsiya dialogni yetakchi estetik baholash mezonini darajasiga chiqaradi.

Odatda, rivoya texnikasi she'rda tavsifiylilikni tartibga solib turish vazifasini o'taydi. Unda hayotiy aqida tuyg'u haqqoniyligiga payvandlanadi. Shakl tugallanmasiga intiladigan ong tipida mohiyat yaxlitligini ta'min etish darajasi ustuvorlashadi. Eng avvalo, monolog va dialog munosabatida mushohada yig'iligi badiiy axborot ta'sirchanligi hamda tezkorligini belgilash imkonini beradi. Muayyan she'r poetik strukturasi ko'zga tashlanadigan keskin o'zgarishlar (assotsiatsiyalar, tahlil malakasi) aslida nutq tiplari mustaqilligi janr pozitsiyasini egallashga mayl kuchayishi natijasi o'laroq hosil bo'ladi. Mavjud vaziyatda mavzu va muammo ta'kid tadqiq sahniga chiqib, universal tamoyillarni tubdan o'zgartirib yuboradi.

– Azizim, aytingchi muhabbat nima?..

– Hayot dengizida suzgan bir kema:

Kimnidir bag'riga olgay qo'noqqa,

Kimnidir u tashlab ketgay qirg'oqqa [1:233].

"Muhabbat" she'ri odatiy savol-javob asosiga qurilgan. Ma'shuqa tomonidan berilgan so'roq (Azizim, aytingchi muhabbat nima?) va masalaga oydinlik kiritishga xizmat qiladigan keng sharh (Hayot dengizida suzgan bir kema: kimnidir bag'riga olgay qo'noqqa, kimnidir tashlab ketgay qirg'oqqa) bir-birini to'ldiradi. Tayanch so'z-timsol (kema) hayot dengizida ikki qutb (ezgulik va razolat) qarama-qarshiligini tavsiflaydi. Mazkur holatda tahlil malakasi nozik tasvir, ruhiyat drammatizmi hamda tarang vaziyatni jipslashtirishga xizmat qiladi. Ma'naviy mezon va axloqiy o'lcham qorishliqligi esa poetik ifoda yangilanganligini ko'rsatadi.

Til materialidan vazifa hamda maqsadga ko'ra foydalanish o'ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Zero, turli tarzda namoyon bo'ladigan usul lirikada muayyan ma'noda

tafovutlanadi. Badiiy nutq shakli sifatida dialog, avvalo, she'riy idrok yo'sinini belgilaydigan asosiy estetik vosita, ikkinchidan, ijtimoiy kommunikatsiya sathlarini birlashtiradigan tizim, uchinchidan, ifoda va tasvirni jipslashtiradigan semiotik markaz hisoblanadi. Binobarin, "she'r – tuyg'u suvrati. Unda emotsiya, ramz, obraz, badiiy san'at bo'lishi kerak; she'rda shoir subyekt, individual uslubi, "men"i, o'z ovozi aks etishi lozim..." [4:86]. Mazkur iqtibosda bir necha jihat e'tiborni tortadi: xususan, she'rda shoir subyekt talabi unda ruhiy munosabat ustuvorligini anglatadi, shuningdek, ijodkor konsepsiyasini belgilash obraz, badiiy san'at va adabiy talqin malakasiga bog'lanadi. Ushbu murakkab bog'lanishdagi badiiy kompleks esa muqoyasa, analogiya hamda tavsifni muhim shart qilib qo'yadi. Qolaversa, individual uslub muallif va qahramon orasida mavjud rishtani yangilaydi. Bu jarayonda tasvir va ifoda bog'lami bir-biriga o'tib turadi:

"Tuproqdayin muztar bo'l" derlar,
Os(i)monlik istamaymanmi?
Ko'z yoshimday loy bo'lsam bir kun,
O'z xalqimga sachramaymanmi? [2: 6].

G.Asqarova adabiy talqinida mushohada muloqot tipi emas, balki murojaat shakli sifatida namoyon bo'ladi. Aslida muallif o'z qarashlarini tasdiqdan o'tkazishga intiladi: ko'z yoshimday loy bo'lsam bir kun, o'z xalqimga sachramaymanmi?. Ilinj, iltijo, istak va gumon omuxtalashgan ritorik ohang mohiyatida istak ustuvorlashadi. "Derlar menga: "so'zlar ganjidan, xayolingdek bir hur kitob tuz" satri mohiyatida shoira armoni quyuqlashadi. Hatto biroz shakkoklik ham (Xalq demayman o'z xalqimni ham, Meni HAQqa olib bormasa) kitobxon g'ashiga tegmaydi. Negaki, his-tuyg'u samimiyati bunga yo'l qo'ymaydi. Hayot haqiqatidan ruhiyat dalolatini kashf qilgan ijodkor aql, idrok, sezim va mantiq tabiiy stixiyasini buzishga ham jazm qiladi.

Men tuproqqa ketgayman singib,
Ruhimni xalq bilan qoramasam.
Xalq demayman o'z xalqimni ham,
Meni HAQqa olib bormasa! [2: 7].

Lirik qahramon o'y-xayollari tasvirini quyuqlashtiradigan lavhada falsafa teranlashadi. Ichki tuyg'u tahlili o'quvchini muntazam his-hayajonda tutib turadi. Javobi tayin, ayni paytda, javobsiz murojaat ifoda tengsiz imkoniyatlarini hosil qiladi. Ko'z, ko'ngil va tilaro rishta mohiyatni anglashga yo'l ochadi, poetik nutq tabiati "ruhimni xalq bilan qoramasam" yanglig' betakror tashbehlarni ko'ndalang qo'yadi, olam va odam idrokini yanada teranlashtirishga xizmat etadi. Shaxs sezimi ritorik munosabatni bog'lovchi asosiy vosita, "ezgulikka chorlasam agar, ergasharmu shu xalq ortimdan" jumlası zamirida tasdiq va inkor yaxlitlashadi. Muallif inson botinidagi o'zak sifatlarini anglashga urinarkan, ruhiyat nozik sir-asrori sari yuzlangan holda lirik kechinma hissiy tovlanishlarini ilg'ashga harakat qiladi.

Ketgan hislar to'qlinlardek qaytadi,
Qalbingizda ma'yus armon, sevasiz.
Bir kun ketsam, ruhim kelib aytadi:
Buncha

oz sevasiz,
yomon

sevasiz! [2:358].

Guljamol Asqarovaning "Oz sevasiz" she'ri adresantga yo'g'rilgan tuyg'ular shodasini tavsiflaydi. Munosabat ottenkasi subyektiv xarakter kasb etadi: "g'amlar cho'kib yotgan g'amgin ko'z", "bo'ron", "xazon", "ketgan hislar" va "ma'yus armon" matnning fojiaiy ruhini quyuqlashtiradi. Bu o'rinda muallif dialogning o'ziga xos shakllanish tarzini yaratadi: So'raydilar: nechun hamon sevasiz? Mening odamlarga bitta so'zim bor: Buncha oz sevasiz, yomon sevasiz! Satrlardan anglashiladigan mohiyat (hijron azobi davomiyligi, ilinj-umidsizlik soyasi) tragik keskinlikni saqlab turadi. Ma'shuqa ruhiyatini falsafiy yo'sinda tasvirlashga bo'lgan mayl she'rga aniq manzara baxsh etadi. Shoira lirik qahramon ko'nglidan kechgan nozik ruhiy holatni badiiy atribut darajasiga ko'taradi. Shuningdek, asosiy ma'noga urg'u berish (buncha oz

sevasiz, yomon sevasiz) yordamida kayfiyat ifodasini muayyan markazga yig'ishga intiladi.

So'z san'atida ijodkor fitratida moddiylashadigan tushuncha va tasavvur aloqasi badiiy nutqda yaxlitlik kasb etadi. Unda til zahirasi vakolati va muallif ruhiyati o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Rivoya texnikasi muttasil ravishda rivojlanib boradigan universal jarayon xususiyatlarini jilvalantiradi. Chunonchi, "so'zning bevosita, odatiy ma'nosi badiiy asar matnida yangidan yangi qirralarini namoyon qiladi, uning ma'no sig'imi benihoya kengayadiki, buni badiiy asarda tasvirlangan xususiyy faktndan katta bir badiiy umumlashma kelib chiqishiga o'xshatsa bo'ladi" [8:244].

Odatda, adabiy til va badiiy nutq o'rtasida mustahkam rishta mavjud bo'lib, asl ma'no va ustama ma'no tafovuti ayni mantiqiy uyg'unlikni ham hosil qiladi. Shu ma'noda, she'riy idrok dialog ta'sirida yorqinlashadi, ixchamlashadi, o'zgaradi va aniqlikka erishadi. Ruhiyatdagi nozik tovlanishlarni mantiqiy yakuniga yetkazadigan rivoya texnikasida individual qirralarni badiiy umumlashma darajasiga ko'tarishga bo'lgan mayl ustuvorlik kasb etgan holda universal belgi poetik munosabat o'ziga xosligini ta'minlaydi. Mazkur jarayon ichki nutqiy bog'lanishida muayyan estetik salmoqqa erishadi hamda unda g'oya markazini belgilash va falsafiy hukm-xulosa yaxlitligi vujudga keladi. Shaxsiyatlararo kechadigan mushohada xilma-xilligi hamda ziddiyati poetik nutq uyg'unligini ta'minlaydi va o'ziga imitatsiya hosil qiladi:

Azizim,
Ne uchun inson yaraldik,
Ko'nglimiz sig'masa yeru samoga?
Oh, endi shu qadar muhabbat bilan
Biz qanday yashaymiz bu tor dunyoda?
Biz nechun yaraldik yolg'on dunyoda?
Azizim, ne uchun maysa emasmiz?... [7:438].

Zebo Mirzaevaning "Azizim" she'ri tugal ritorik savollar majmui negiziga qurilgan: Azizim, Ne uchun inson yaraldik, Ko'nglimiz sig'masa yeru samoga? Ruhiy kechinma kardiogrammasi yuksak ehtiros pardalari tarangligi saqlanishiga zamin hozirlaydi. Muallif subyektga murojaat yordamida monolog dialogik xarakterini ochib beradi. Undagi tayanch tushuncha (ishq) tuyg'u hisobotini yig'ishga yo'l ochadi. "Daraxt", "Giyoh", "Shamol", "Sahro" va "Daryo" tabiatdan olingan muqoyasalar aslida ma'naviy-axloqiy sifatni tavsiflash vazifasini o'taydi. Shuningdek, tasvir quvvat-hofizasini oshirishga sharoit tug'diradi. Sabab va oqibat rishtasini yoritish ifodaning dialogik shaklini vujudga keltiradi va unda ijtimoiy qatlama xos xususiyatlar tahlili quyuqlashadi. Bu jarayonda adresat hamda adresant munosabatining manfaat-ehtiyojlarini jipslashtirishni taqozolaydi. Shoir bir paytning o'zida ham lirik qahramon, ham shaxs ruhiyatini yoritishga muvaffaq bo'ladi.

Lirikada nutqiy malaka va rivoya usuli yaxlitligi muntazam asosiy nuqtaga ko'chadi. Aniqlik, so'z va ifoda, tasvir va tasavvur muqobilligi badiiy kommunikatsiyani vujudga keltiradi. Unda dialog badiiy tafakkurning o'ziga xos qatlami sifatida tahlil jarayonini boshqaradi. Undagi ijtimoiy yuk o'rnini egallaydigan estetik qiymatda esa poetik g'oya aks etadi. Aynan g'oyaviy mazmun matn intizomida o'z maromiga yetadi. Adekvat shaklda qayta idroklangan mohiyat maqsadga yo'naltirilganlik darajasi bilan izohlanib unda konstruksiya hissiy idrokka ta'sir o'tkazgan holda tasavvurdagi keskin psixologik holat dunyoqarash ziddiyatlarini namoyish etadi. Shu ma'noda, qahramon va mavjud voqelik muloqoti muntazam bir-biriga ta'sir o'tkazadi. Bu jarayonda shaxsiyat to'la falsafiy lashadi-ijtimoiylashadi.

Zero, "Badiiy matn so'zning faol harakat maydonidir. Harakatchan so'z asar badiiyligini ta'min etuvchi yetakchi omillardan biri. Badiiy matndagi so'zning harakat tebranishlarini o'rganish muayyan kontekstning ma'no potensialini, ya'ni ma'noning bor imkoniyat majmuini aniqlash imkonini beradi. So'zga harakat obyektı sifatida qarash uning badiiy kontekstdagi yashash tarzini kuzatish, o'zaro bog'lanish holatlarini tadqiq qilish" [5:216] ga yo'l

ochadi. Ma'no va so'z aloqasi poetik g'oya tabiatini oydinlashtiradi. Unda mushohada va his-tuyg'u nisbati asosiy omil hisoblanadi. Ifoda va tasvir bir-biriga o'tib turishi tasavvur idroki dialoglashishini hosil qiladi. Undagi tushunchaning ta'sir o'tkazish darajasi esa masala mohiyatini aniqlashtiradi:

Deydilarki, bahor boshlanar,
Jilg'alarning sho'x kulgusidan.
Boychechakning tabassumi-yu
Kurtaklarning tug'ilgusidan [6:28].

Farida Afro'z adabiy talqinida yangilanish va yasharish pallasi – bahor kirib kelishi jarayonini o'z maqsadiga bo'ysundiradi: “Deydilarki” ta'kid bilan ibtidolanadigan mushohadada bahs-munozara mezoni ustuvor, to'rt banddan iborat she'r adog'ida shoira tavsiflarni inkor etadi (Bu so'zlarning barisi bekor!). Uning nazdida, bahor “ishqqa tashna, yaxshilikka o'ch” yurakdan boshlanadi. “Jilg'alarning sho'x kulgusi, boychechakning tabassumi-yu kurtaklar tug'ilgusi” bari bekor, muallif jozib muqoyasalar vositasida (yalpizlarning bo'yi, shabboda kuyi, jambil bo'yli kunlar, quchog'ida bir dunyo sirlar, ko'ngli g'uncha tunlar) inson irodasi hamda yorug' istiqbolga ishonch hissini tarannum etadi. She'r satrlarida ichki uyg'unlik,

Adabiyotlar

1. Азим Суюн. Ўзбекюрт. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2015.
2. Аскарлова Г. Эркалик имтиёзи. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2012.
3. Йўлдошев Қ. Очқич сўз. –Т.: “Тафаккур”, 2019.
4. Каримов Б. Рухият алифбоси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2016.
5. Сувон Мели. Сўзу сўз. –Т.: “Шарқ”, 2017.
6. Фарида Афрўз. Ўзимники. –Т.: Адабиёт учкунлари, 2018.
7. XX аср ўзбек шеърини антологияси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
8. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. –Т.: Навоий университети, 2018.

REZYUME. Maqolada she'riyatda dialog va monolog tabiati, badiiy nutq shakllarining she'r poetik strukturasi ta'siri masalasi nazariy umumlashtiriladi. Muallif – matn – kitobxon munosabati lirikada badiiy kommunikatsiyani vujudga keltirishi muayyan ijodkorlar misolida tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье теоретически обобщаются природа диалога и монолога в поэзии, влияние художественных речевых форм на поэтическую структуру поэзии. На примере отдельных исполнителей анализируются отношения автор-текст-читатель, создающие художественную коммуникацию в лирике.

SUMMARY. The nature of dialogue and monologue in poetry, the influence of literary speech forms on the structure of poetry is depicted in the article. The author-text-reader relationship that creates literary communication in lyrics is analyzed on the example of certain poems.

ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ДӘСТАНЛАРЫНДА ЫРЫМ ХӘМ ИСЕНИМЛЕР

К.С.Палымбетов – филология илимлериниң докторы (DSc), доцент

Өзбекстан Республикасы Илимлер Академиясы Қарақалпақстан бөлими

Қарақалпақ гуманитар илимлер илим-изертлеу институты

Таянч сўзлар: достон, композиция, сюжет, миф, маросим, эътикод, сафар ойи, ирим, қарғиш.

Ключевые слова: эпос, композиция, сюжет, миф, традиция, вера, месяц «сафар», примета, проклятие.

Key words: epic, composition, plot, myth, tradition, faith, «sافر» month, superstition, damnation.

Дәстанлардың композициясында әйемги дәуірлерге тән мифологиялық көзқараслар, ҳәр қыйлы исенимлер, түрли дәстүрлер менен үрп-әдетлер, ырымлар сәулеленип, олар сюжетти жүзеге келтирүүде эпик характер ийелейди. Солардың бири сапар айында жолға шықпаў, сапарға шыққанда нан алып жүриў, алғыс алыў хәм қарғыс сөзлер менен байланыслы ырым хәм исенимлер есапланады. Биз бул мақаламызда усы мәселелер жөнинде пикирлермизди билдирмекшимиз.

Халық арасында мусылманлардың хижрий жыл есабы бойынша жылдың екінши айында келетуғын сапар айында үйлениўге, неке қыйыўға, той бериўге, узақ жолға сапар етиўге болмайды деген түсиник ырым сыпатында қәлиплескен. Егер усы ырымға әмел етилмесе басланған ис, узақ жолға исленген сапар нәтийжесиз болады деп түсинген. Халық арасында қолланылып киятырған усындай исенимдеги ырымлар дәстанлардың сюжетинде ўақияны раўажландырыў, шийеленистириў, ўақия бағытын өзгертиў хәм т.б. халатларда әхмийетли орын тутады. Мысалы, «Шайрин-Шекер» дәстанында ер жеткен балалар атасынан аң аўлап, шикарға шығыў ушын ат сорап келеди. Сонда балаларының елден шығынып, жат журтларға кетиўинен қәуипсинген Ўәлийхан патша балаларын иркиў ушын сапар айын бәне етеди. Балаларды бағытанан қайтарып жолынан иркеди. Мысаллар келтирейик: «Сол ўақытта патша ойланып

мантийи изчиллик мавjud: Дейдилarki, келadi bahor, Tog'lar oshib, adirlar oshib! Matnda tasvir obyekti faqat axborot uzatish vositasi bo'lib qolmasdan, balki salmoqli mantiy-hayotiy-ramziy mohiyat tashiydi.

Kuzatishlardan anglashiladiki, she'riyatda dialog badiiy matn tahlilida tayanch markaz vazifasini bajaradi. Ifoda mustaqilligini ta'minlaydigan va tasvir ruhiyatini belgilaydigan nutq shakli axborotni uzatish – qabul qilish jarayonini qamrab oladi. Muallif – matn – kitobxon munosabati lirikada badiiy kommunikatsiya vujudga kelishini ta'minlaydi. Mavjud vaziyatda aloqa jarayoni bevosita va bilvosita ravishda amalga oshadi. Badiiy nutq tiplari aslida ijtimoiy-estetik mohiyatni baholashga ixtisoslashtirilgan bo'ladi. Shu ma'noda, tuyg'u va fikr oqimini bir-biriga muvofiqlashtirishda monolog va dialog muhim ahamiyat kasb etadi. Ruhiy holat manzarasini uyg'un va jozibali, ixcham va lo'nda, teran va tarang ifodalash mayli rivoya texnikasi vazifadoshligini ta'minlaydi. Unda til hodisasi, badiiyat mezoni hamda ijtimoiy salmoq yaxlitlik kasb etadi. Aynan hissiy idrok va aqliy salohiyatni birlashtirish murakkab jarayon sifatida estetik munosabat uslubiy yurishlarini boshqarishga xizmat qiladi.

турса, сол ай сапар айы деген ай екен. Сапар айда сапарға шықса жаман болатуғын еди, балаларына қарап бир-бир жуўап айтты:

Атаңызды қылма, балам, сен сарсаң,
Жолға шықпас қаруан тартқан Бәзирген,
Бул айлардың атын сапар дейдилер,
Шықпа балам, нәсиятым, Шекержан» [1:22].

Дәстанда ер жеткен балалардың усы ат сораў мотивинде ерте дәуірлерден қолланылып киятырған ырымның сюжетке шеберлик пенен киргизилгенин көремиз. Бул ырым ислам дининен бурын пайда болып, адамлар әсирлер бойы сапар айын бақытсызлық айы деп қабыллап келген. Хәзирги күни де айырым адамлардың сапар айын ырым етип, оған әмел етиўи ушырасады. Сонлықтан да жыраўлар дәстанды жыраў пайтында халық түсинигинде хәм психологиясында ертеден орналасып қалған сапар айына байланыслы, турмыста бар, қолланылып киятырған ҳақыйқатлықты, яғный ырымды шеберлик пенен пайдаланған. Мысалы, «Шәрър дәстанының Жумабай жыраў вариантында халық исениминдеги мынадай ырым айтылады: «Сонда биреўи ойланып, бир сумлықты табады. Сапар айының үркединиң бешиндеги бәлеси я суўға, я қумға түседи дейтуғын еди. Сол усы быйыл усы қумға түскен қусайды» [2:241], - деп сапар айынан қорқыў сезимлери сәулеленеди. Сондай-ақ, жыраўлар унамсыз қахарманның яки персонаждың портретин сүўретлеўде «Сапар